

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

“FUNDAMENTAL IQTISODIYOT” KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida

UDK:338.054.23 (575.1)

ISMAILOV ABDULAZIZ AKMAL O‘G‘LI

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISHCHI KUCHI
BANDLIGINI TA‘MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

70310101 – “Iqtisodiy nazariya”

Mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr

Akademik darajasini olish uchun yozilgan


DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
Dots. Erkaev A.N.**

Toshkent-2023

Magistrlik dissertasiya ishi “Fundamental iqtisodiyot” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan. 8 sonli bayonnoma «26» aprel 2023 y.


Ilmiy rahbar: Эркаев А.И



imzo

sana

Magistrant: Умаров А.А.



imzo


sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil “ ”
№ raqami bilan ro‘yxatga olingan

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Fundamental iqtisodiyot” kafedrasini mudiri,

dots. B. Mamaraximov



“23” may 2023-yil

Himoya 2023-yil “24” may soat 10:00 da
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tdi

ANNOTATSIYA

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchi bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari tadqiq etish bugungi knda dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, mahalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid mahalliy me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishning amaliy ahamiyatini oshirish uchun, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanish holatining o'ziga xos jihatlari va maqsadli ko'rsatkichlari tahlili amalga oshirildi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ishchi kuchi bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga ta'siri statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilib o'rgandik. Undan tashqari raqamli transformatsiyani rag'batlantirishning xorij tajribasi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va tahlil qilingan ma'lumotlar asosida raqamli iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchi bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari ochib berildi va ilmiy va amaliy asoslangan huloosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, strategiya, ishchi kuchi, mehnat bozori, bandlik, xizmat ko'rsatish.

ABSTRACT

In the context of the digital economy, the research of priority areas for ensuring labor employment is one of the relevant topics in today's KN. Therefore, during the study, we conducted a thorough work within the framework of the topic. In particular, having studied other research works on the topic, views, scientific articles of maxalli and foreign scientists, as well as maximal normative documents on the topic, we prepared a review of the literature. To increase the practical importance of scientific work, an analysis of the specifics and target indicators of the state of development of the digital economy in Uzbekistan was carried out. We studied the impact of the development of the digital economy on the priorities of ensuring labor employment on the basis of statistical data. We also got acquainted with the foreign experience of stimulating digital transformation and the possibilities of its effective use. On the basis of the studied and estimated data, priority areas for ensuring labor employment in the conditions of the digital economy were revealed, and we developed a scientifically and practically based summary, proposals and recommendations.

Keywords: modernization, digital economy, digital technology, strategy, labor force, cocktail market, Employment, Service.

MUNDARIJA

	ANNOTATSIYA	2
	KELTIRILGAN JADVALLAR RO'YXATI	6
	KELTIRILGAN RASMLAR RO'YXATI	
	KELTIRILGAN QISQARTMALAR	
I-BOB.	KIRISH	7
1.2.	Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.	8
1.3.	Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.	9
1.4.	Tadqiqot obekti va predmeti	10
1.5.	Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati.	11
1.6.	Dissertatsiya tarkibini qisqacha tavsifi.	12
II-BOB.	ADABIYOTLAR SHARXI	13
2.1.	Kirish.	13
2.2.	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchi bandligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar.	13
2.3.	O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllanishi va uning asosiy xususiyatlari	20
2.4.	Ishchi kuchi bandligini tartibga solish shakllari va usullari	29
III-BOB.	TADQIQOT METODOLOGIYASI	36
3.1.	3.1.Tadqiqot dizayni.	36
3.2.	3.2.Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	36
3.3.	3.3. Tadqiqotning metodologik asoslari.	37
3.4.	3.4.Tahlil uchun qo'llanilgan usullar.	38
IV-BOB.	TAHLIL VA NATIJALAR	39
4.1.	4.1. Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotning tapmoq tapkibiy tuzilmasining transformatsiyasi.	39
4.2.	4.2. O'zbekistonda yoshlarni ish bilan bandligi ta'minlashning muammolari va ustuvor yo'nalishlari	46
4.3.	4.3. Mehnat bozorida ishchi kuchi bandligini ta'minlash holati tahlili	50
4.4.	4.4. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot sharoitida ishchi kuchi bandligini ta'minlashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari	62
4.5.	4.5. Raqamli iqtisodiyotni ishchi kuchi bandligini ta'minlashga ta'siri	69
	Asosiy xulosalar	77
V-BOB.	XULOSA VA TAVSIYALAR	79
5.1.	5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	79
5.2.	5.2.Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	81
5.3.	5.3. Tadqiqot qamrovi chegaralari	86
5.4.	5.4. Kelajakdagi taqiqotlar uchun tavsiyalar	86

1-BOB. KIRISH

Jahon banki hisobotlaridagi ish bilan band dunyo aholisining alohida mezonlar bo'yicha tahlili – bandlarning 61 %i norasmiy bandlardan iboratligi, 52 %igina mehnatiga haq to'lanuvchi bandlar ekanligi, 26 % bandlar aholining o'ta va o'rtacha qashshoq qismini tashkil etishi to'g'risidagi ma'lumotlar mehnat bozoridagi bandlik holatini o'rganish va tahlil etish asosida uni tartibga solish hamda boshqarish jarayonlarida bandlikning zamonaviy xususiyatlarini yetarli darajada hisobga olish lozimligini ko'rsatmoqda¹.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bugungi kunda ish bilan bandlikni ta'minlashning yangi yo'nalishlari paydo bo'lmoqda. Ish beruvchilar ixtiyoriy ravishda va xohishiga ko'ra xodimlarni ishga yollash imkoniga ega bo'lmoqdalar va geografik joylashuvi hamda vaqtdagi farq ahamiyatga ega emas. Xodimlar axborot texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'z vazifalarini bajarishga qodir bo'lib, uydan tashqariga chiqmasdan, har qanday vaqtda belgilangan vazifani bajarish imkoniga ega bo'lishmoqda.

Shu bois mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bugungi kunning va yaqin istiqbolning eng muhim vazifasiga aylangan. Prezidentimizning 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2023 yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 barobar, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish, ular eksportini 100 million AQSh dollariga yetkazish vazifasi qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2022 yil 21 dekabr kuni mamlakatimiz parlamentiga qilgan navbatdagi murojaatnomasida "Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug' bo'lgan diyor – Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo'ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz"-deb ta'kidlagan edi.

¹ World Employment and Social Outlook: Trends 2019. International Labour Office – Geneva: ILO, 2021. pp. 5-6.